

PAPER

TO'QIMACHILIK SANOATIDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

Ibaydullayev Shohijahon Dilshod o'g'li¹, *

¹Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti “Kechki ta'lim va magistratura” fakulteti “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” ta'lim yo'nalishi magistratura 2-bosqich talabasi

*ibaydullayev@gmail.com

Abstract

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etib, xorijiy bozorlarga chiqish salohiyatini yuksaltirish orqali xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada eksportni kengaytirish nazariyalari, ishlab chiqarish jarayonlari va xalqaro talablar bilan moslashish masalalari tahlil etilgan. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish hamda yangi bozorlarni egallash eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlari sifatida bayon qilingan. Shuningdek, tashqi iqtisodiy munosabatlar va raqamli rivojlanish jarayonining dolzarbligi ham alohida ayd etilgan.

Key words: to'qimachilik sanoati, eksport salohiyati, xalqaro bozor, ishlab chiqarish texnologiyalari, innovatsion mahsulotlar, qo'shilgan qiymat, tashqi iqtisodiy munosabatlar, raqamli transformatsiya, eksport diversifikatsiyasi, global talab, savdo hamkorlik, ishlab chiqarish samaradorligi, bozor segmentatsiyasi, logistika infratuzilmasi.

Kirish

Bugungi kunda to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, ichki bozorni ta'minlash bilan birga, xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berishda muhim o'rin tutadi. Eksport salohiyatini oshirish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish dolzarb masalalar hisoblanadi. O'zbekistonning tabiiy xomashyosi, mehnat resurslari va qulay geografik joylashuvi sanoat rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq texnologik cheklovlar, logistika muammolari va xalqaro talablar bilan moslashish zarurati mavjud.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator hujjatlar sohani rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlarni belgilab berdi. Jumladan:

2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son Farmon – “To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [1] farmonida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek 2024-yil 1-maydagi PF-71-son Farmon – “To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib

chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [2] farmonida respublikani “to'qimachilik xabi”ga aylantirish, gazlama va trikotaj mato ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsad qilingan.

Shunday qilib, to'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutib, uning eksport salohiyatini oshirish xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi bozorlarni o'zlashtirish eksport hajmini kengaytirishning asosiy yo'nalishlaridir. Shuningdek, xalqaro standartlarga moslashish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va savdo hamkorliklarini kengaytirish soha raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillar hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ushbu jarayonlarning nazariy asoslarini tahlil qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

To'qimachilik sanoati va uning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu bo'limda soha bo'yicha nazariy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, xalqaro talablar va raqobatbar-

doshlikni oshirish usullari tahlil qilingan ilmiy manbalar ko'rib chiqiladi.

A. Smit va D. Rikardo [3] tomonidan ilgari surilgan nisbiy afzalliklar nazariyasiga ko'ra, mamlakatlar o'z iqtisodiy ustunliklariga asoslangan holda mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi kerak. To'qimachilik sanoati uchun bu nazariya ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va eksport hajmini oshirishga yordam beradi.

Maykl Porter [4] milliy raqobatbardoshlik nazariyasida sanoatning xalqaro bozordagi mavqei mustahkamlash uchun texnologik innovatsiyalar, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, O'zbekistonning to'qimachilik sanoati global bozorda muvaffaqiyat qozonishi uchun yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur.

Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan chop etilgan tadqiqotlarda [8] to'qimachilik sanoatida barqaror ishlab chiqarish va ekologik standartlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro bozorda muvaffaqiyat qozonish uchun korxonalar OEKO-TEX, GOTS, BCI kabi xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishi kerak.

Metodologiya

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlarni o'rganish natijasida quyidagi metodologik yondashuvlar ishlab chiqildi:

1. Eksport salohiyatini diversifikatsiya qilish –mahsulot turini kengaytirish va yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish orqali xalqaro talab va standartlarga mos keluvchi strategiyani ishlab chiqish.

2. Mahalliy resurslardan samarali foydalanish –xomashyoni chuqur qayta ishlash darajasini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish.

3. Raqamli transformatsiyani rivojlantirish –elektron tijorat va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali xalqaro savdo jarayonlarini optimallashtirish.

4. Innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish – ekologik toza va texnologik jihatdan ilg'or mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularni eksportga yo'naltirish.

5. Tashqi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish –xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro brendlar bilan hamkorlik o'rnatish va to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish.

6. Xalqaro sertifikatlarga ega bo'lish –OEKO-TEX, GOTS, BCI kabi xalqaro sertifikatlarga mos mahsulot ishlab chiqarish orqali jahon bozorida ishonchli brend sifatida tanilish va eksport hajmini oshirish.

Shu asosda maqolada O'zbekistonning to'qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan strategiyalarni shakllantirish, xalqaro tajribalar asosida samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni milliy sharoitga moslashtirish bo'yicha metodologik yondashuv taklif etiladi.

Natijalar

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qulay sharoitlarda to'qimachilik sanoatining rivojlanishi mamlakat va uning hududlari iqtisodiy o'sishining muhim nuqtasiga aylanishi mumkin. Bu borada O'zbekiston muayyan raqobat ustunligi va salohiyatga ega.

To'qimachilik sanoati mamlakatimizning tovar va xizmatlar eksportida yetakchi o'rinni egallaydi, aniqrog'i tovar va xizmatlar umumiy eksportining qariyb 17,5 foizi uning hissasiga to'g'ri keladi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlarining fikriga ko'ra, so'nggi yillarda eksportni sifat jihatidan diversifikatsiya qilish bo'yicha muayyan natijalarga erishilgan. Birinchidan, mahalliy resurslarni ichki qayta ish-

lash (paxta tolasining 80–90 foizini qayta ishlash) hisobidan xomashyo (paxta tolasini) eksportining qisqarishi va sanoat tovarlari (ip–kalava, mato, kiyim) eksportining ortishi ta'minlandi. Ikkinchidan, xorijga qariyb 500 turdagi to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilishga erishildi. Uchinchidan, jahon bozorining yangi segmentlariga chiqish hisobiga O'zbekiston jahonning 65 dan ortiq mamlakatiga mahalliy to'qimachilik mahsulotlarini yetkazib berishni yo'lga qo'ydi. Rossiya, Xitoy, Turkiya va Qirg'iziston –bizning asosiy savdo hamkorlarimiz hisoblanadi. Mamlakat to'qimachilik mahsulotlarining taxminan 80 foizi ushbu mamlakatlarga eksport qilinadi. Institut tomonidan qilingan hisob–kitoblar Andijon, Namangan, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahri to'qimachilik mahsulotlarining asosiy eksportchilari ekanligini ko'rsatdi. (2021–yilda tovar eksportining umumiy hajmida mintaqaning ulushi 11–17,5 foiz, jami 66,6 foiz). Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida kalava ip va mato eksporti muhim yo'nalish hisoblanadi. Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyatlari kalava ip va matolarni qayta ishlashni chuqurlashtirish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish hisobiga to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish xazinalariga ega. Biroq institut ekspertlarining fikriga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari eksportini kengaytirish uchun quyidagi masalalarga e'tiborni kuchaytirish lozim:

1. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarilgunga qadar ip va matolarni sanoat usulida davomli qayta ishlashni ta'minlash.

2. Eksportning istiqbolli yo'nalishi sifatida innovatsion to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni o'zlashtirish.

3. Hududning milliy rang–barangligi, mahalliy an'analar, zamonaviy dizayn va modani hisobga olgan holda tayyor to'qimachilik mahsulotlarining xalqaro mintaqaviy forumlarini o'tkazish.[7]

Eksport salohiyatini oshirish har bir mamlakatning iqtisodiy strategiyasida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, to'qimachilik sanoati eksport salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan sektor hisoblanadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nazariy jihatlarini tushunish muhim ahamiyatga ega.

Eksport salohiyati tushunchasi. Eksport salohiyati –bu mamlakatning iqtisodiy, ishlab chiqarish va texnologik resurslarini tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun samarali foydalanish qobiliyatidir. To'qimachilik sanoatining eksport salohiyati quyidagilarga bog'liq:

- Ishlab chiqarish quvvatlari: Mahsulotlarni yetarli miqdorda va sifatda ishlab chiqarish imkoniyati.

- Xalqaro talab va standartlar: Mahsulotlarning xalqaro bozordagi talab va standartlarga mosligi.

- Texnologik daraja: Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish.

To'qimachilik eksport salohiyatini belgilovchi omillar :

- a) Tabiiy resurslar va xomashyo bazasi. O'zbekistonning boy xomashyo bazasi (paxta tolasini, ipak, jun) to'qimachilik eksportining asosiy manbasi hisoblanadi. Bu resurslardan samarali foydalanish eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi.

- b) Ishlab chiqarish texnologiyalari. Mahsulotning sifat va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ishlab chiqarish texnologiyalariga bog'liq. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish nafaqat ishlab chiqarish jarayonini soddalashtiradi, balki mahsulot sifatini xalqaro talab darajasiga yetkazadi.

- c) Xalqaro savdo talablariga moslashuvchanlik. To'qimachilik mahsulotlariga xalqaro bozorda ekologik tozalikka, barqarorlikka va yuqori sifatga talab kuchaymoqda. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ushbu talablarni qondira olish qobiliyati eksport salohiyatining o'sishiga bevosita ta'sir qiladi.[4]

- d) Raqamli transformatsiya. Raqamli texnologiyalar va elektron tijorat platformalari to'qimachilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga chiqarishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. [7]

Eksportni rivojlantirish nazariyalari. Eksport salohiyatini oshirishda bir qator nazariy yondashuvlar qo'llaniladi:

a) Rikardo va nisbiy afzalliklar nazariyasi. Rikardoning nisbiy afzalliklar nazariyasiga ko'ra, mamlakatlar o'zlarida ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan past bo'lgan mahsulotlarni eksport qilishga ixtisoslashadi. To'qimachilik sanoatida bu prinsip ishlab chiqarish tannarxi past mahsulotlarni global bozorga chiqarishni rag'batlantiradi.[5]

b) Porterning milliy raqobatbardoshlik nazariyasi. Michael Porterning nazariyasiga ko'ra, mamlakatning raqobatbardoshligi sanoatni modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etish orqali oshadi. To'qimachilik sanoatida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish ushbu nazariyani tasdiqlaydi.[6]

c) Klaster yondashuvi. Klaster yondashuvi to'qimachilik eksport salohiyatini oshirishda samarali bo'lib, ishlab chiqarish, logistika, va marketing jarayonlarini yagona tizimda boshqarishni ta'minlaydi.

To'qimachilik sanoatida eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlari:

- Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish: Mahalliy xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish orqali mahsulotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish.[1]

- Innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish: Aqlli matolar, ekologik toza materiallar va barqaror ishlab chiqarishga e'tibor qaratish.[3]

- Logistika va ta'minot zanjirini rivojlantirish: Mahsulotlarni xalqaro bozorga o'z vaqtida va xavfsiz yetkazib berish uchun logistik infratuzilmani takomillashtirish.

- Xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish: OEKO-TEX, GOTS, va BCI kabi xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish.[9]

- Yangi bozorlarni o'zlashtirish: An'anaviy bozorlar bilan bir qatorda Yevropa, Janubiy Amerika va Osiyo davlatlarining yangi segmentlariga kirish.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning o'рни. Eksport salohiyatini oshirishda tashqi iqtisodiy aloqalar muhim rol o'ynaydi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali to'qimachilik sanoati eksport geografiyasini kengaytirish mumkin. Xulosa qilib aytganda to'qimachilik sanoatida eksport salohiyatini oshirish nazariy jihatdan mamlakatning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga asoslanadi. Mahalliy resurslar, innovatsion texnologiyalar va xalqaro talablarni inobatga olgan holda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish mamlakatning global bozordagi mavqeini mustahkamlaydi. Shu sababli, to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini kengaytirish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonning to'qimachilik sanoati iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, uning eksport salohiyatini oshirish mamlakatning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda eksportni diversifikatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramay, eksport hajmining pasayishi, logistika infratuzilmasidagi muammolar va xalqaro talablar bilan moslashish zarurati dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli transformatsiyani rivojlantirish va xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish eksport salohiyatini oshirish uchun asosiy shart hisoblanadi.

Takliflar:

- Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish - tayyor mahsulot eksportini oshirish uchun xomashy-

odan tayyor mahsulotgacha bo'lgan ishlab chiqarish zanjirini takomillashtirish lozim.

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish - ekologik toza materiallar va aqlli matolar ishlab chiqarishga e'tibor qaratish orqali xalqaro bozor talablariga javob berish.

- Xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish - OEKO-TEX, GOTS, BCI kabi standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish orqali eksport geografiyasini kengaytirish.

- Logistika va infratuzilmani rivojlantirish - mahsulotlarni o'z vaqtida va xavfsiz yetkazib berish uchun transport va ta'minot zanjirlarini takomillashtirish.

- Yangi eksport bozorlarini o'zlashtirish - an'anaviy bozorlar bilan bir qatorda Yevropa, Janubiy Amerika va Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

- Raqamli transformatsiyani rivojlantirish - elektron tijorat va marketing platformalaridan foydalanish orqali to'qimachilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish.

- Tashqi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish - xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro brendlar bilan hamkorlik qilish orqali sanoatning raqobatbardoshligini oshirish.

- Shu yo'nalishdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali O'zbekiston to'qimachilik sanoatini jahon bozorida mustahkam o'rin egallagan yetakchi tarmoqlardan biriga aylantirish mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-71-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 28.01.2022 yildagi "2022 —2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmonidan
4. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2024-yil, iyul, № 7-son
5. David Ricardo, "On the Principles of Political Economy and Taxation" USA-2010.146-p
6. Michael E. Porter . Palgrave Macmillan UK, 1998. p-69
7. www.yuz.uz/uz/news/toqimachilik-sanoati-eksportni-oshirish-uchun-nimalarga-etibor-qaratish-lozim
8. www.betterwork.org Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti. "To'qimachilik sanoatida barqaror ishlab chiqarish va ekologik standartlar".
9. www.global-standard.org